
“Men ham – qutqaruvchi bo’laman!” tanlovi o’tkazildi

Qo’shtepa tumanidagi 46-maktabda “Men ham – qutqaruvchi bo’laman!” tanlovi o’tkazildi. Tanlov davomida bugungi kundagi yoshlарimizning qanday kuch va bilimga ega ekanligi yana bir bor namoyon bo’ldi. Qizg’in kechgan va baxslarga boy bo’lgan ballashuvlarda yuqori tayyorgarlikka ega bo’lgan yoshlarga g’oliblik nasib etdi.

Quvonarlisi shundaki, tadbirda ishtirok etgan yoshlар o’rtasida qutqaruvchilik kasbiga qiziqqan yoshlар juda ko’pchilikni tashkil etdi. Sohaga qiziqqan yoshlarga maxsus texnikalar namoiyishi tashkil etildi. Ularga jangovar vaziyatlarda insonlarni arqonlar yordamida qanday qutqarib olish harakatlari malakali qutqaruvchilar tomonidan ko’rsatib berildi. Bo’lib o’tgan tadbir yoshlarda bor olam taassurot qoldirdi.







2024-11-18 14:18:53